



**TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF ECONOMICS**

VOLUME 7 / 2024

LABOR ECONOMICS

MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ilmiy elektron jurnali

LABOUR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

scientific electronic journal

2024 yil 4-son

Volume 10, Issue 4, 2024



**МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI
VA INSON KAPITALI**
ISSN: 3030-3117



LABORECONOMICS.UZ

МЕХНАТ ИҚТISODIYOTI VA INSON KAPITALI

№ 4-2024

**ЭКОНОМИКА ТРУДА И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ
КАПИТАЛ**

LABOR ECONOMICS AND HUMAN CAPITAL

“Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) rayosatining 2023-yil 3-iyundagi 328/3-sonli qarori bilan ro‘yxatga olingan.

Muassis: “Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali” ilmiy maktabi.

Tahririyat manzili:

100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko‘chasi,
49 uy

Elektron manzil: ilmiymaktab@gmail.com

Jurnal web-sayti: www.laboreconomics.uz

Bog‘lanish uchun telefonlar:

+998998818698

Tahririyat Kengashi raisi:**(Chairman of the Editorial Board)**

Abduraxmanov Qalandar Xodjayevich, O'zFA akademigi

Tahririyat Kengashi a'zolari:**(Members of the Editorial Board)**

Toshqulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof.
Yusupov Axmadbek Tadjiyevich, i.f.d., prof.
Sharipov Kongratboy Avezimbetovich, t.f.d., prof
Raifkov Kudratilla Mirsagatovich, i.f.d., prof
Xalmuradov Rustam Ibragimovich, i.f.d., prof
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.
Nazarov Sharofiddin Xakimovich, i.f.d., prof.
Jumayev Nodir Xasiyatovich, i.f.d, prof.
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof.
Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof.
Zokirova Nodira Kalandarovna, i.f.d., prof.
Xudoyberdiyev Zayniddin Yavkachevich, i.f.d., prof.
Muxiddinov Erkin Madorbekovich, i.f.f.d., (PhD)
Xolmuxammedov Muhsinjon Murodullayevich, i.f.n., dots.
Amirov Lochinbek Fayzullayevich, i.f.f.d., (PhD), dots.
G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich, i.f.d., (DSc), dots.
Shakarov Zafar Gafarovich, i.f.f.d., (PhD)

Jamoatchilik Kengashi a'zolari:**(Community Council members)**

Bred Bodenxauzen (AQSh)
Jon Ankor (Buyuk Britaniya)
Odegov Yuriy Gennadevich (Rossiya Federasiyasi)
Keynz Miller (AQSh)
Sung Dong Ki (Koreya Respublikasi)
Masato Xivatari (Yaponiya)
Gerxard Feldmayer (Germaniya)
Eko Shri Margianti (Indoneziya)
Ahmed Mohamed Aziz Ismoil (Misr)
Rohana Ngah (Malayziya)
Sharifah Zanniyerah (Malayziya)
Teguh Dartanto (Indoneziya)
Nur Azlinna (Saudiya Arabistoni)
Muhammed Xoliq (Pokiston)
Alisher Dedaxonov (Toshkent)

Mas'ul muxarrir (Editor-in-Chief): G'oyipnazarov Sanjar Baxodirovich

Veb-administrator (Web admin): Musayev Xurshid Sharifjonovich

MUNDARIJA (CONTENTS)**MEHNAT BOZORI VA MEHNAT MUNOSABATLARI**

S.B.G'oyipnazarov I.A.Bakiyeva S.M.Kurbanbayeva	<i>Change of professions and skills in the field of tourism under the influence of artificial intelligence.....</i>	6-19
S.S.Amirdjanova	<i>Приоритетные направления занятости населения и организационно-экономические механизмы его реализации.....</i>	20-33

INSON KAPITALI

A.B.Irmatova A.M.Saidahmadov	<i>Raqamli iqtisodiyotda inson kapitalini rivojlantirishda o'qitish tizimi</i>	34-50
F.O.Odilova	<i>Касб-хунар таълими битирувчиларининг касбий кўникмаларини оширишга таъсир кўрсатувчи омиллар</i>	51-60
T.N.Azimov	<i>Роль высшего образования в обеспечении устойчивого роста человеческого капитала</i>	61-78
T.B.Shomurodov	<i>Oziq ovqat xavfsizligini ta'minlashning inson kapitalini rivojlanishiga ta'sirini baholash</i>	79-86

INSON TARAQQIYOTI

Sh.D.Akishova	<i>O'zbekistonda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali moliyaviy salohiyatni oshirishning zamonaviy holati.....</i>	87-93
X.X.Yaxshimuratova	<i>Mamlakat aholisining turmush farovonligini oshirishda iste'mol kreditlarining ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan obyektiv zarurligi.....</i>	94-100
Z.K.Murtozayeva	<i>The role of public procurement in the project financing system formed on the basis of public opinion in the Republic of Uzbekistan.....</i>	101-109
Ch.O'.Ro'zimurodova	<i>Davlat xaridlari tizimini takomillashtirish: zamonaviy tendensiyalar va asosiy o'zgarishlar.....</i>	110-120
T.B.Shomurodov	<i>O'zbekistonda aholi daromadlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini baholashning metodologiyasini takomillashtirish.....</i>	121-130

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH

O.A.Norboyev	<i>Мулкий муносабатлар механизмини такомиллаштириш.....</i>	131-141
---------------------	-------------------------------------------------------------	---------

T.B.Shomurodov	<i>Daromad tengsizligining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'siri: rivojlanayotgan mamlakatlar misolida.....</i>	142-150
MIGRATSIYA		
Z.T.Jumanova	<i>Turizm sohasi faoliyatini statistik tahlil qilish.....</i>	151-161
INSON RESURLARINI BOSHQARISH		
M.F.Abdumannofova	<i>Inson resurslarini boshqarishda raqamli texnologiyalardan foydalanishning tendensiyalari</i>	162-171
G.R.Kuziyeva	<i>Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ishchi kuchi samaradorligini oshirishda innovatsiyalarning ta'sirini baholash</i>	172-180
G.R.Kuziyeva	<i>Ishlab chiqarishda innovatsiyalarning joriy etilishining ishchi kuchi samaradorligiga ta'sirini baholash</i>	181-188
TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH		
S.K.Mansurov	<i>Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda tovarlar eksportining o'рни va ahamiyati</i>	189-203
S.U.Ismailova	<i>Роль цифровых маркетинговых стратегий в обеспечении устойчивого экономического роста в цифровой экономике</i>	204-213
Sh.Sh.Atadjanova	<i>Turistik destinatsiya raqobatbardoshligini oshirish orqali mintaqada turizmni barqaror rivojlantirish</i>	214-221
D.B.Fayziyeva	<i>Raqamli iqtisodiyot sharoitida korxonalarining samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish</i>	222-232
Sh.U.Karimova	<i>Mintaqada turizmni rivojlantirishda turistik resurslardan unumli foydalanish</i>	233-238
G.R.Kuziyeva	<i>O'zbekistonda innovatsiyalarning yapli ichki mahsulotni diversifikatsilayalashdagi rolini baholash...</i>	239-247
Sh.S.Sayfutdinov D.T.Alijonova	<i>Hududiy turizm bozorini barqaror rivojlanishining nazariy asoslari</i>	248-254
GENDER TENGLIGI		
B.A.Xonturayev	<i>Ta'lim institutlarini jamiyatga ta'sirini gender indeksleri asosida baholash</i>	255-270

MUNOSIB MEHNAT

S.B.G'oyipnazarov

Barriers to the adoption of Industry 4.0 technologies in the practice of occupational safety and health of smes...

271-281



MEHNAT IQTISODIYOTI VA INSON KAPITALI

ISSN: 3030-3117

<https://laboreconomics.uz/>



TURISTIK DESTINATSIYA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQADA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISH

Atadjanova Shaxnoza Shuxratovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

To'rtko'l fakulteti assistenti

DOI: https://doi.org/10.55439/LEHC/vol2_iss1/a137

Annotatsiya. Ushbu maqolada turistik destinatsiya va destinatsion menejment jarayonlari tahlil qilinib, mintaqalarda turizmni rivojlantirishda turistik destinatsiyalarning ahamiyati va ularni samarali boshqarishning dolzarbligi bo'yicha ma'lumotlar keltiriladi va tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: turistik destinatsiya, turistik manzil, turistik hudud, turistik zona, destinatsion menejment.

УСТОЙЧИВОЕ РАЗВИТИЕ ТУРИЗМА В РЕГИОНЕ ПУТЕМ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ТУРИСТИЧЕСКОГО НАПРАВЛЕНИЯ

Атаджанова Шахноза Шухратовна

Ташкентский государственный экономический университет

Ассистент кафедры Турткул

Аннотация. В данной статье анализируются туристические дестинации и процессы управления дестинациями. Приводится информация о значении туристических дестинаций для развития туризма в регионах и актуальности их эффективного управления. Также даются рекомендации.

Ключевые слова: туристическая дестинация, туристическое направление, туристическая зона, туристический регион, управление дестинациями.

SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM IN THE REGION THROUGH INCREASING THE COMPETITIVENESS OF TOURIST DESTINATIONS

Atadjanova Shakhnoza Shukhratovna

Tashkent State University of Economics

Assistant, Faculty of Tortkul

Abstract. This article analyzes tourism destinations and destination management processes, providing information on the importance of tourism destinations in the development of tourism in regions and the relevance of their effective management. Recommendations are also offered.

Keywords: tourism destination, tourist destination, tourist area, tourist zone, destination management.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 16-oktabr sanasida Butunjahon turizm tashkiloti Bosh Assambleyasi 25-sessiyasida “Turizm sohasida yaratilayotgan har bir yangi ish o‘rni boshqa tarmoqlarda yana 2 ta ish joyini hosil qilishga imkon berishi” to‘g‘risida so‘z yuritib, turizmning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o‘rni qanchalik ahamiyatga ega ekanligini yuqori darajada ta’kidlab o‘tganlar. So‘nggi yillarda jahondagi daromadi bo‘yicha eng yuqori eksport kategoriyasi ega bo‘lgan soha sifatida Xalqaro turizm sohasi 2022-yilda 5-o‘ringa ko‘tarildi⁵⁰.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Xorijiy mamlakatlarda turizmni boshqarish mexanizmlarini tadqiq qilish, boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish hamda mavjud muammolarni hal qilish bo‘yicha N.Leyper, R.V.Balter, S.Kuper, T.Jamal, D.Gets, E.Soteriou, K.Roberds, X.Pexlaner, M.Xall, N.Layper, J.Jafariy, J.Tribi, G.Krauch, J.Richchi kabi olimlar shug‘ullanishgan hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar.

O‘zbekistonda turistik destinatsiyalardan foydalanish, turizmni rivojlantirish masalalari va turizmni samarali boshqarish yuzasidan respublikamiz olimlaridan B.N.Navruz-zoda, N.S.Ibragimov, R.O.Raximov, B.B.Sobirov, Y.D.Bekjanovlar tadqiqot ishlarini olib borganlar.

Turizm geografiyasi manbalarida turistik destinatsiya sifatida “turistik manzil”, “turistik rayon”, “turistik hudud”, “turistik zona”, “turistik mintaqa” kabi atamalardan foydalanilgan bo‘lib, ba‘zan ulardan bir xil mazmunga ega tushunchalar sifatida foydalanilgan.

Turistik destinatsiyalarni boshqarish turizmning atrof-muhitga ta‘sirini nazorat qilishning muhim qismidir. Destinatsiyalarni boshqarish ushbu joydan samarali foydalanishni rejalashtirish, biznesga ruxsat berish va rayonlashtirishni nazorat qilish, atrof-muhit bilan bog‘liq bo‘lgan qoidalarni joriy qilish, turizm bilan bog‘liq faoliyatning rivojlanishini shakllantirish va biznes uyushmalar tashabbusini qo‘llab-quvvatlash uchun mo‘ljallangan ko‘plab usullardan iboratdir⁵¹.

Butunjahon turizm tashkiloti ta‘rifiga ko‘ra: Destinatsion menejment – turistik destinatsiyani tashkil etuvchi barcha elementlarning muvofiq holda boshqaruvidan iboratdir. Destinatsion menejment destinatsiyani boshqarishda alohida elementlarni bog‘lash orqali strategik yondashuvlar asosida boshqarishdir. Menejmentga qo‘shimcha ravishda tashrif buyuruvchilarga xizmat ko‘rsatish, reklama, biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha bir-biriga mos keladigan funksiyalarning takrorlanishini oldini olishga va hal etilmagan boshqaruv kamchiliklarini aniqlashga yordam beradi. Destinatsiyani boshqarish

⁵⁰ International tourism highlights 2024 edition.(UN Tourism)

⁵¹ www.ziyonet.uz

umumiy maqsad sari harakat qiladigan ko'plab tashkilotlar va manfaatlarining kaolitsiyasini talab qiladi, bu esa turizmning raqobatbardoshligi va barqarorligini ta'minlaydi. Destinatsiyani boshqarish tashkilotining (DMO) roli ushbu umumiy maqsadga erishish uchun izchil strategiya ostida faoliyatni boshqarish va muvofiqlashtirish hisoblanadi⁵².

Tadqiqot metodologiyasi

O'zbekistonda keyingi yillarda turizm sohasiga katta e'tibor qaratilayotganligi sababli, mamlakatimiz hududida yangi turistik destinatsiyalarni shakllantirish va ularni raqobatbardoshligini oshirish orqali ushbu hududlarda turizmni barqaror rivojlanishini ta'minlashga erishish mumkin. Tadqiqot davomida abstrakt-mantiqiy, monografik, hisob-kitob-konstruktiv, iqtisodiy-statistik, taqqoslash, prognozlash, indeksli va qiyosiy tahlil kabi tahlil usullaridan keng foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mamlakatimizda turistik destinatsiya bo'yicha ilmiy tadqiqot olib borayotgan olimlardan Buxoro davlat universiteti professori B.N.Navro'z-Zoda va dotsent N.S.Ibragimovlar turistik destinatsiyani destinatsiyani boshqaruv ob'ekti sifatida o'rganishgan va uni talab va taklifni uyg'unlashtirgan holda ko'rib chiqishgan(1.1-jadval).

Yondashuvlar	Sayohatgoh(destinatsiya)ning ta'riflari
Taklif nuqtai nazaridan	Sayyohning sayohat maqsadiga binoan shakllangan yagona mahsulot
Talab nuqtai nazaridan	Turistik joylarda turistik taklif sistemasining faoliyat olib borishlari natijasida shakllangan yagona mahsulot
Talab va taklif uyg'un birligi sifatida	Ma'lum jug'rofiy joylardagi strategik-tuzilmaviy shart-sharoitlardan barhamand bo'lgan holda o'z turistik ehtiyojlarini qondirishga mo'ljallanib, sayohatning faoliyati natijasida yaratilgan yagona mahsulot

1.1-jadval.Sayohatgoh(destinatsiya) atamasining ta'rifiga turlicha yondashuvlar⁵³

⁵²www.unwto

⁵³ Navruz-Zoda B.N,Ibragimov N.C va boshqalar “Turistik hudud raqobatbardoshligi” Monoqrafiya, “Durdona” nashriyati, Buxoro 2017,16-bet

Bizning fikrimizcha, turistik destinatsiya – bu geografik jihatdan katta kichikligidan qat’iy nazar aniq chegaraga ega bo’lgan geografik hudud, iqtisodiy jihatdan sayyoh va turistlarning talab va ehtiyojlarini qondirishga yo’naltirilgan mahsulot, turistik jihatdan esa sayyoh va turistlarni o’ziga xos bo’lgan turistik resurslari orqali jalb etib, ularga sayohat motivini bag’ishlovchi turizm ob’ektidir.

Turistik destinatsiyada joylashgan turistik tashkilotlar faoliyatini yanada yaxshilash va takomillashtirish muhim omil hisoblanadi. Ularning birlashuvi, bir-birlari bilan hamkorligi va kelishgan holda ish yuritishlari, albatta ularning turistik mahsulotini sifatini oshirib beradi, bu esa o’z navbatida ushbu destinatsiyaga bo’lgan talabni oshishiga olib keladi. Mamlakatimizga yetib keladigan turistik oqimlarning turli segmentlarini ko’paytirish, uni samarali boshqarish, uning barqarorligini ta’minlash, mavsumiylik xususiyatidan xoli qilish va uni ichki resurslar evaziga vujudga keltirishda qo’l keladigan destinatsiyalarga asoslangan boshqaruv tizimini joriy qilish destinatsion menejmentning asosiy vazifalaridan biridir. Bugungi kunda turistik tashkilotlarning bir-birlari bilan bir jamoa sifatida ish yuritishini ta’minlovchi tashkilot esa - Destinatsion menejment tashkilot(DMT)laridir. 1980-yillarda turizm sohasiga “destinatsion marketing va menejment” atamaları kirib keldi. Dastlab ko’pchilik soha vakillari bu tarmoqqa e’tibor berishmadi, ammo XXI asrga kelib, destinatsion menejment va marketing turizm sohasining asosiy tarmoqiga aylandi(1.2-jadval).

10 yillik	Destinatsion marketing	Destinatsion menejment
1960-1970	2	2
1970-1980	8	6
1980-1990	49	17
1990-2000	557	300
2000-2010	5 560	4 230
2010-2020	17 100	15 700
Umumiy	23 276	20 255

1.2-jadval. Destinatsion menejment va marketingning rivojlanish davri⁵⁴.

Turistik destinatsiyalarni boshqarish turizmning atrof-muhitga ta’sirini nazorat qilishning muhim qismidir. Destinatsiyalarni boshqarish ushbu joydan samarali foydalanishni rejalashtirish, biznesga ruxsat berish va rayonlashtirishni nazorat qilish, atrof-muhit bilan bog’liq bo’lgan qoidalarni joriy qilish, turizm bilan bog’liq faoliyatning rivojlanishini shakllantirish va biznes uyushmalar

⁵⁴ Google Scholar, author’s analysis (excluding citations).

tashabbusini qo'llab-quvvatlash uchun mo'ljallangan ko'plab usullardan iboratdir⁵⁵.


Destinatsion menejment tashkilotlar destinatsiyadagi turizm bilan bevosita va bilvosita bog'liq bo'lgan bir qancha tashkilotlar bilan birgalikda ish olib borishi lozim. Hattoki turizmga tashqi tomondan ta'sir qiluvchi tashkilotlar va ichki tomondan ta'sirga ega bo'lgan mahalliy aholi vakillarining o'rne ham alohida e'tiborga loyiq. Yuqoridagi jadvalda destinatsiyalarni boshqarishda destinatsiyaning ichkarisidan va tashqarisidan turib qatnashuvchi tashkilotlar keltirib o'tilgan.

Destinatsion menejment tashkilotlari

- Mijozlarga yo'naltirilgan keng qamrovli parallel takliflar assortimentiga ega bo'lish;
- Raqobatbardosh bozor sharoitiga bardosh bera oladigan mijozlar bilan doimiy aloqani ta'minlab beradigan aniq bir brend ostida faoliyat olib borish strategiyalarini ishlab chiqish;
- Mintaqada turistik faoliyatni rivojlantirish orqali uning iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlanishiga yordam berish kabi bir qancha talablarga javob berishi lozim.

Yuqorida belgilangan talablardan quyidagi destinatsion menejment funksiyalari vujudga keladi:

1. Axborot funksiyasi;
2. Ta'minot funksiyasi;
3. Rejalashtirish funksiyasi;
4. Marketing funksiyasi.



1.3-jadval. Destinatsion menejment tashkilotining asosiy vazifalari

⁵⁵ www.ziyonet.uz

Ushbu funksiyalarni amalga oshirishning aniq bir yo’li belgilanmagan. Ularni amalga oshirish bir tashkilot tomonidan birlashtirilgan holda bajarilishi yoki turli tashkilotlarga taqsimlangan holda bajarilishi mumkin. Destinatsion menejment tashkilotining afzalliklaridan biri esa bu funksiyalarni birlashtirilgan holda bajarilishini ta’minlashidir.

Destinatsiyalarni kompleks ravishda boshqarish bir-biriga o’zaro ta’sir etuvchi quyidagi 6 ta asosiy vazifalarni bajaradi(1.3-jadval):

1. Strategik rejalashtirish;
2. Infratuzilmani rivojlantirish;
3. Professionallashtirish va sifatni boshqarish;
4. Kommunikatsiya va sotish;
5. Mahsulotni rivojlantirish & brend tajribalari;
6. Ishtirokchilarni boshqarish.

Xulosa va takliflar

Turizm ham iqtisodiy, ham ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega keng qamrovli soha. U daromadliligi bo’yicha dunyoda beshinchi o’rinda turadi. Yana bir muhim tomoni, kam xarajat bilan ko’p ish o’rinlari yaratish imkonini beradi. Mamlakatimizda bu soha izchil rivojlanmoqda. Jumladan, 2022-yilda yurtimizga tashrif buyurgan xorijiy turistlar soni 2021-yilga nisbatan 3 baravar oshgan. Soha eksporti 1 milliard 600 million dollarni tashkil etgan. Ichki turizm dasturlari doirasida 11 milliondan ziyod aholi sayohat qilgan. Samarqandda yangi turizm markazi barpo etilgani natijasida u yerga qo’shimcha 2 million sayyoh kelgan.

Ushbu maqolada turistik destinatsion menejmentning ahamiyatini yoritib bergan holda, unda respublika miqyosida turizmni rivojlantirishda destinatsion menejmentning o’rni katta ekanligini ko’rishimiz mumkin. Shunday qilib, bizning fikrimizcha destinatsion menejment – turizmni rivojlantirishga qaratilgan professional yondashuvlar asosida destinatsiyada barcha turistik tashkilotlar ustidan rahbarlik qiluvchi iqtisodiy faoliyatdir. Destinatsion menejment destinatsion mahsulotni muvofiqlashtirish va kompleks ravishda boshqarishni o’z ichiga oladi. Destinatsiyani samarali boshqarish turistik faoliyatni uzoq muddatli rejalashtirish va doimiy monitoring natijalarini baholashga qaratilgan.

Xulosa o’rnida shuni aytishimiz mumkinki, Destinatsiyani boshqarish turistni izchil, raqobatbardosh mahsulot bilan ta’minlash uchun ko’pincha bir-biridan farq qiluvchi elementlarni birlashtirishni o’z ichiga oladi. Bu sayyohlarni targ’ib qilish, axborotlashtirish, infratuzilmani rivojlantirish va hokozalar bo’yicha sa’y-harakatlarning takrorlanishiga yo’l qo’ymaydi. Boshqaruv sub’ekti bo’lgan manzilni rivojlantirish va uning raqobatbardoshligini oshirish uchun mas’ul bo’lgan ixtisoslashgan davlat, jamoat, xususiy-davlat muassasalari

hisoblanadi⁵⁶. Mintaqada turistik destinatsion menejmentni yo'lga qo'yish destinatsiyadagi turistik harakatlarni strategik rejalashtirish, ular asosida destinatsiyada mavjud turistik mahsulotlar sifatini professionallashtirish, tashrif buyuruvchilarga keng assortimentli takliflar yaratish, samarali marketingni yo'lga qo'yish kabi bir qancha o'ziga xos jihatlarni yaratib beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

I.O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1.1.O'zbekiston Respublikasining “Turizm to'g'risida” gi qonuni, 18 iyul', 2019 y.

II. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Farmonlari va Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar

2.1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasi turm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'grisida"gi PF-4861-sonli farmon Uzbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to'plami, 2016, № 49, 558-6, 2017 № 1, 3-6

2.2. PF-5611-son.05.01.2019.O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. <https://lex.uz>

III. Darslik, o'quv qo'llanma, monografiya, ilmiy maqola, ilmiy to'plamlar.

3.1. D. Bekjanov “Turistik destination menejment”: metodologiya, modellar va innovatsiyalar. Monografiya. Tashkent 2022

3.2. Навруз-Зода Б.Н,Ибрагимов Н.С ва бошкалар “Туристтик худуд ракобатбардошлиги” Монография, “Дурдона” нашриети, Бухоро 2017,16-бет.

3.3. Ibragimov Nutfillo Salimovich,Turistik hudud barqaror raqobatbardoshligiga erishishning ilmiy asoslari, iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya,Samarqand 2021

3.4. Бобур Бахтишодович Собиров .PhD, Тошкент давлат иқтисодиёт университети Самарқанд филиали доценти, mrbobursobirov@gmail.com. “ТУРИСТИК ДЕСТИНАЦИЯ” ТУШУНЧАСИНИНГ МАЗМУНИ ВА МОҲИЯТИ: ИЛМИЙ НАЗАРИЙ ТАҲЛИЛ maqola asosida muallif tomonidan qo'shimchalar kiritildi.

3.5. Destination management in developing and emerging countries. Handbook and guidelines for building sustainable destination management organizations.Pdf.

⁵⁶www.ziyonet.uz

IV. Internet ma’lumotlari.

- 4.1. https://kitob.sies.uz/frontend/web/kitob/kitob_0060b846c047a0b.pdf
- 4.2. www.ziyonet.uz
- 4.3. www.unwto
- 4.4. <https://review.uz/uz/post/turizm-soasini-rivozlantiris-bujica-2019-jilda-amalga-osirilgan-islar>

Mehnat iqtisodiyoti va inson kapitali



+998 71 239 28 13

Tashkent, Uzbekistan

ilmiymaktab@gmail.com

www.laboreconomics.uz